

XIX ASR IKKINCHI YARMIDA TURKISTON O‘LKASIDA SOLIQ TIZIMI(ZARAFSHON OKRUGI MISOLIDA)

Isroilova Nargiza Saipaliyevna,
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Tarix yo‘nalishi 2 kurs magistranti
Email: @mail.ru
Тел:+998

Аннотация

Mazkur maqola XIX asr ikkinchi yarmida Zarafshon okrugining soliq va yig'implar tizimi haqida ilmiy ma'lumotlar beradi. Unda Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston general-gubernatorligi tarkibida tashkil etilgan Zarafshon okrugining turli yig'implar, soliqlar turlari, majburiyatlar hamda soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada okrugningsoliqlarni undirish va yig'ish tashkilotlaridahamda daromadlarning kirim-chiqimi, hisobotlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: soliq, yig'im, majburiyat, jarima, zakot, okrug, patta, ma'muriy bo'linish, Nizom, general-gubernator, tuman, amlok.

НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА (НА ПРИМЕРЕ ЗАРАВШАНСКОГО ОКРУГА)

Аннотация

Данная статья предоставляет научную информацию о системе налогов и сборов в Заравшанском округе во второй половине XIX века. В ней анализируются различные виды сборов, налогов, обязательств, а также особенности налоговой системы округа, созданного в составе Туркестанского генерал-губернаторства Российской империи. Кроме того, в статье приводятся сведения об организациях, занимавшихся сбором налогов и пошлин, а также о доходах и расходах округа, их учете и отчетности.

Ключевые слова: налог, сбор, обязательство, штраф, закят, округ, пatta, административное деление, Положение, генерал-губернатор, уезд, амлок.

THE TAX SYSTEM IN THE TURKESTAN REGION IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY (A CASE STUDY OF THE ZARAFSHAN DISTRICT).

Abstract

This article provides scientific information about the tax and levy system in the Zarafshan district in the second half of the 19th century. It analyzes various types of levies, taxes, obligations, and the specific features of the district's tax system, which was established as part of the Turkestan General-Governorship under the Russian Empire. Additionally, the article presents information on the organizations responsible for tax collection, revenue and expenditure management, and financial reporting within the district.

Keywords: tax, levy, obligation, fine, zakat, district, patta, administrative division, Regulation, general-governor, uyezd, amlok.

Kirish

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilingach barcha sohalarda bo'lgani singari soliq tizimida ham bir qator islohotlar va o'zgarishlar amalga oshirilib, mustamlakachilik manfaatlariga moslashtirildi. Zarafshon okrugida ham, butun Turkiston o'lkasida bo'lgani kabi davlat daromadlarining asosi soliqlar va yig'imlardan iborat bo'lgan. O'lkadagi imperiya ma'muriyati boshqaruvning dastlabki yillarida Buxoro amirligi hukmronligi davrida amalda bo'lgan soliqlar va yig'imlarni, xususan, xiroj, tanobona va zakot, shuningdek, tasodifiy yig'imlar (qamish puli, somon puli, cho'p puli va boshq.) ni saqlab qolishga qaror qilgan edi. Ular okrug daromadlarining asosiy qismini tashkil etgan. Zarafshon okrugini boshqarish bo'yicha ishlab chiqilgan "Muvaqqat qoidalar"ning III va IV boblari (jami 93 ta moddadan 47 tasi) muzofotdagi soliqlar, yig'imlar va majburiyatlar, daromadlarning kirimi va chiqimi masalalariga bag'ishlanganligi ham buni tasdiqlaydi.

Asosiy qism. O'lkada mustamlaka ma'muriyati boylik va daromad ishlariga katta e'tibor berganligi sababli turli soliqlar, yig'imlar va majburiyatlar hamda ularning yig'ib olinishi bilan bog'liq ishlarga katta ahamiyat qaratdi. Ushbu maqsadda okrugdagi mahalliy soliq yig'uvchilar xizmatidan foydalanib, soliqlar statistik hisobotlari yuritila boshlandi. Lekin dastlab imperiya tomonidan yuritilgan statistik ma'lumotlarda bir-biriga teskari ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, 1868 yilda Kattaqo'rg'on bo'limida sarkorlar va soliq to'plovchilar tomonidan undirilgan soliq va yig'imlarning miqdori 40 ming 777 rubl 50 tiyindan iborat bo'lganligi qayd etilgan bo'lsa, boshqa bir arxiv hujjatida Kattaqo'rg'on bo'limi bo'yicha undirilgan xirojning miqdori 63 ming 75 rubl 40 tiyinni tashkil etganligi ko'rsatilgan[1]. Buni o'lkada statistika bo'limi endi tuzilgan, hududlardagi mas'ullar raqamlar masalasiga jiddiy

qaramaganligi hamda harbiy harakatlar davom etayotganligi sababli hisobot ishlari va nazorat sust bo'lganligi bilan izog'lash mumkin.

Shuningdek, okrug boshlig'i 1869 yilgi 922-sonli raportida Kattaqo'rg'on bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Karaganovning 1869 yildagi 14-sonli raportida 1868 yilgi hosil miqdorlari haqidagi hisoboti qoniqarsizligi, statistik jihatdan ishlov berish shartligi, bozor zakotlaridan olingan 668 rublning qaysi bozorlardan qancha miqdorda olinganligi batafsil berilmaganligini aytib o'tgan. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, o'lkada dastlabki vaqtlarda mas'ul rahbarlar tomonidan statistika bo'limlariga statistik hisobotlar berib borish masalasiga jiddiy e'tibor berilmaganini yana bir bor ko'rishimiz mumkin. Mazkur raport bo'yicha Kattaqo'rg'on bo'limi boshlig'i 1868 yilgi xiroj va soliq miqdorlari, ekin turlari bo'yicha botmonda olingan xirojlar miqdorini bo'limning tumanlari va ular tarkibidagi qishloqlar kesimida batafsil hisobotini berib o'tgan[2].

Chor Rossiyasi tomonidan 1868 yilda Davlat Nazorat palatasi, 1869 yilda esa Davlat Xazina palatasi tuzilib, davlat budjetini shakllantirish, xazinaga tushadigan soliqlar, tushumlar va boshqa mablag'larni va ulardan meyoriy foydalanishni nazorat qilish asosiy vazifasi etib belgilandi hamda bu borada cheklanmagan vakolatlar berildi[3]. Har bir viloyat tarkibidagi uyezdlarda ham Xazina palatasining bo'limlari tuzilib, soliq va tushumlarni o'z vaqtida yig'ish va Davlat Xazina Palatasiga hisobot topshirib borish vazifasi yuklatilgan. Shu tariqa imperiya o'lkada davlat budjetini shakllantirish tizimini paydo qilgan. Soliqlarning o'z vaqtida davlat budjetiga tushishi, avvalambor mana shu uyezdlarda tashkil etilgan xazina palatasining ish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

Mustamlaka boshqaruv idoralari mahalliy aholi quyi tabaqalarining yangi hokimiyat siyosati, yer-suv munosabatlarining o'zgartirilishi, vodiya rusiyzabon aholining ko'chirilishi, joriy etilishi rejalashtirilgan soliq va to'lovlarga qarshiligini sindirish niyatida mahalliy yirik yer egalari, boy savdogarlar, qozilar va musulmon peshvolarni o'z tomoniga jalb eta boshladi. Shu maqsadda aynan ular orasidan volost boshqaruvchilari, qozilar, qishloq oqsoqollari, harbiylar, rus-tuzem maktablari o'qituvchilari tayinlanar edi. Ayni vaqtda Rossiya imperiyasining agrar siyosati negizida mintaqada joylashtirilgan rus qo'shinlari, mustamlakachilik boshqaruv idoralarini moliyaviylashtirish hamda ko'chirib keltirilayotgan aholini moddiy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq xarajatlari tub aholidan undiriladigan soliqlar, to'lovlar bilan qoplash maqsadi yotgan edi. Bu holat oxir-oqibat nafaqat qishloq va ovullarda, balki shaharlar hududida ham mahalliy aholining moddiy ahvolini og'irlashtirgan omillardan biri bo'lgan hamda boshqa salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqargan edi.

“Muvaqqat qoidalar”da sarkorlar, zakotchilar va boshqa to'lovchilar bo'lim boshliqlariga pullarni oddiy qog'oz bilan topshirishlari, unda pulning kim tomonidan kiritilayotganligi, qanchaligi va qaysi soliq yoki yig'imdan ekanligi ko'rsatilishi, soliq va yig'imlarning miqdori to'g'risidagi e'lonlar yerli tillarda, albatta ularning rus tilidagi tarjimai bilan taqdim etilishi,

bu e'lonlarning tarjimasi bo'lim boshqaruvlari tilmochlari tomonidan bepul, ularning vazifalari doirasida amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Barcha hisob-kitoblar Rossiya kumush tangasida olib borilishi, Buxoro tangalarining qabul qilinishiga yo'l qo'yilishi, biroq, shu shart bilanki, bo'lim boshliqlari yig'ilgan Buxoro tangalari miqdorini ipli kitoblarning alohida grafalariga qayd etib borishi, to'lovchilardan pul undirish davomida bo'lim boshliqlari ularga shaklli patta berishlari belgilab qo'yilgan. Zarafshon okrugida summalarning kirim-chiqimi bo'yicha hisob-kitob ishlari muzofot boshlig'i mahkamasi ish yurituvchilaridan biri (buxgalter) tomonidan mavjud qoidalar va o'ta aniqlikka amal qilgan holda yuritilgan. Zarafshon okrugidan keyingi soliqlar va yig'implar undirilgunga qadar harbiy-xalq boshqaruvi bo'yicha xizmatchilarning ta'minoti va boshqa xarajatlariga pullar Turkiston general-gubernatori ixtiyorida bo'lgan summalardan ajratilishi qoidasi joriy etilgan. Daromadlarning yig'ilishi bilan Zarafshon okrugi boshlig'i har oyning so'nggida o'z mahkamasi buxgalteriya bo'linmasi boshlig'iga muzofot boshqaruvi xizmatchilarining ta'minoti va boshqa xarajatlarini qanoatlantirish uchun farmoyish beradi. Xuddi shunday farmoyish ayni vaqtda u tomonidan bo'lim boshliqlariga ham berilishi "Muvaqqat qoidalar"ning 77-bandida belgilab qo'yilgan. Soliq va yig'implarni yig'ish ishlarida dastlab mahalliy aholi orasidagi sarkorlar xizmatidan foydalanilgan va ular rag'batlantirib borilgan. Jumladan, "Muvaqqat qoidalar"ning 55-moddasida sarkorlar tomonidan to'plangan xiroj va tanobonaning miqdori ahamiyatli darajada bo'lsa, ularni pul mukofoti bilan taqdirlash va mukofot miqdorini to'plangan soliqlar miqdorining 2,5 foizi hisobida belgilash qayd etilgan edi[4]. 1868–1870 yillardagi uch yillikda soliqlarni hisoblash va yig'ish tartibi Buxoro amirligi davridagidek bo'lib, 1871 yildan mahalliy aholi orasidan olingan yig'uvchilar olib tashlangan va rus amaldorlari rahbarligida harakat qiluvchi nazorat komissiyalari tashkil etilgan. Komissiyaning vazifasiga har yili ekin maydonlarini tanob usulida o'lchash (mahalliy o'lchovchilar yordamida) hamda o'rtacha hosil va mahsulotning o'rtacha narxini aniqlash kirgan[5]. Rus ma'muriyatiga vaziyatga qarab imperiya manfaatlari yo'lida soliq miqdorlari va yig'ish tizimlarini o'zgartirib borganligini ko'rishimiz mumkin.

Imperiya ma'muriyati dastlab okrugda Buxoro amirligi davrida amal qilib kelgan soliqlar tizimini saqlab qolganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, A.P.Xoroshxin o'z asarida okrugdagi soliqlar yoki daromadlarni ikki kategoriyaga bo'lib ko'rsatib o'tgan: a) asosiy soliqlar: 1) xiroj 2) tanob va 3) zakot b) tasodifiy hollarda yig'iladigan soliqlar[6].

1869 yilda Samarqand bo'limi bo'yicha undiriladigan xirojning miqdori 144 ming 806 rubl 30 tiyin etib belgilangan va bu jami yer soliqlarining 81,4 foizini tashkil etgan[7]. Dehqonlar amirlik davridagidek soliqni Xiroj yer solig'i bo'lib, dehqonlar yetishtirgan mahsulotlari bilan to'lashgan va uning aniq miqdori belgilanmagan edi. U hosilning 1/3, 1/5 va 1/10 miqdorida to'langan. Hokimiyat tomonidan mahalliy sharoitni hisobga olgan holda, xiroj miqdori sug'oriladigan pasttekisliklarda 1/3, dashtli joylarda 1/5 va alohida imtiyozlardan

foydalanuvchilar uchun 1/10 miqdorida belgilangan. Okrugda to'lanadigan xiroj solig'i har bir hududda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan to'langan. Misol uchun, bug'doy, arpa, tariq, no'xot, zig'ir, tamaki, ro'yan va ko'knori yoki muayyan joyga tegishli mahalliy mahsulotlar: paxta, sholi, jo'xori, tariq, kunjut, maxsar, indov va mosh. Bundan tashqari orkugning Samarqand bo'limi Chelak tumanida xiroj solig'i poliz mahsulotlari: piyoz, sabzi, oshqovoq va boshqalar bilan to'langan. Xiroj yig'ish ertagi hosil (oq)dan may oyida, kechki hosil (ko'k)dan avgust oyida boshlangan.

Boshqa bir rus muallifi asarida ham soliq turlari va miqdorlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Xususan, 1868 yilda okrugga tashrif buyurgan V.Radlov o'z asarida amirlik davridagi boshqaruv tizimi va soliqlariga ham to'xtalib o'tgan. Jumladan, muallif soliqlarni uchga bo'lib ko'rsatib o'tgan: xiroj, zakot va tanob. Xirojning miqdori hosilning 1/8 dan 1/5 gacha bo'lib mahsulot tarzida to'lanishi, tanob bog'lardan olinib pul bilan to'lanishi, zakot esa bozorga olib kelingan mahsulotlar, karvonlar, chorvalardan va hunarmandlardan olinishini aytib o'tgan. Asarda, "majburiyatlar og'ir, adolatsiz va noto'g'ri taqsimlangan, chunki ular mulkdan emas ishchi kuchidan undiriladi. Viloyatni ishq'ol qilgan mutasaddilar tez orada o'lkaning soliq va iqtisodiy aloqalari bo'yicha tez orada to'g'ri va aniq ko'rsatmalar beradi, deb umid qilaman" – deb amirlik davrida shakllangan soliq tizimi tanqid qilingan[8]. Lekin, imperiya ma'muriyati viloyatni ishq'ol qilgach dastlabki davrlarda har yilgi soliqlarni o'z vaqtida va muntazam yig'ib olish uchun asrlar davomida mavjud bo'lib kelgan soliq olish tizimini saqlab turishni afzal ko'rishgan.

O'lka general-gubernatori ma'muriyati vaziyatga qarab dastlabki vaqtlarda xiroj miqdorini o'zgartirib turgan holatlar bo'lib turgan. Xususan, general-adyutant fon Kaufman 1873 yilda Xivaga yurish paytida siyosiy sabablarga ko'ra xiroj miqdorini 1/10 qismga, ya'ni ilgari Sirdaryo viloyati uchun qabul qilingan hajmga tushirgan[5]. Bunda rus ma'muriyati Xivaga yurish paytida okrug aholisi xayrixoxligiga erishib, hududda tinchlikni saqlab turishga harakat qilganligini payqash mumkin.

Zarafshon ma'muriyatiga yer mulkining hajmi va turi, hosildorligi to'g'risida ma'lumot berib kelgan xiroj tizimi 1876 yilda yer solig'i bilan almashtirildi. Biroq rus ma'muriyati uni sug'orilmaydigan yerlar uchun qo'llash imkoniyatini topolmay, ularni oldingi yig'im-terimdan xiroj to'lash tizimida qoldirishni afzal ko'rishgan [9]. Bunga quyidagilar sabab bo'lgan: rus ma'muriyati tomonidan yer tizimi joriy etilmaganligi va barcha yerlar chegarasi belgilab olinmaganligi tufayli sug'orilmaydigan yerlarni qishloq aholisiga qonunan topshirmaganligi; sug'orilmaydigan yerlarda har yili ekin ekilmasligi va lalmi ekinlar (bug'doy, arpa, zig'ir)dan hosil olish nihoyatda o'zgaruvchan bo'lganligi; doimiy daromadi bo'lmaganligi sababli aholiga yer solig'i belgilashning xavfliligi, ya'ni ketma-ket ikki yil hosil bo'lmagan yillarla aholi uni to'lash imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Shularni hisobga olib hosil yaxshi bo'lgan yillarda sug'orilmaydigan yerlardan sezilarli daromadni yo'qotmaslik maqsadida bu yerlar

uchun oklad tizimi bilan birgalikda har bir ekinning yillik tanob hisoblarini tuzib, shunday xarakterdagi xiroj tizimi qoldirilgan.

Okrug tuzilgan paytda mavjud xiroj, tanob yig'implari va zakotdan tashqari Zarafshon okrugi aholisi Buxoro hukumati tomonidan undirilgan barcha pul yoki natura ko'rinishidagi yig'implarni xazinaga to'lashga majburligi "Muvaqqat qoidalar"da belgilab berilgan. 1873 yilga kelib muzofotda yerga doir bo'lgan barcha soliqlar xiroj, savdo karvonlaridan undiriladigan zakot boj yig'imi va bozorlarda sotilgan chorva mollardan undiriladigan zakot puli bozor yig'imi shaklida undirila boshlangan. Okrug boshlig'ining 1869 yil 29 yanvardagi 99-son farmoyishi bilan Samarqand shahridagi hammomlar yillik 50 rubldan soliqqa tortilgan edi. Shuningdek, Samarqand bozorida sotilgan o'tin va ko'mirdan, chorva mollari ozuqalaridan ham yig'implar undirilgan. Tarvuz, qovun, sabzi va boshqa mahsulotlardan yig'implar ular sotiladigan karvonsaroylarning foydasiga undirilgan. Tarozibonlar tomonidan karvonsaroylarda sotilgan don mahsulotlarining har batmonidan sotuvchidan 2,5 funt, xaridordan 2 funt yig'im undirilgan. Xususiyatiga ko'ra mazkur soliqlar tasodifiy daromadlar turkumiga kirgan va ularning tushumi doimiy bo'lmagan. Demak, mustamlaka ma'muriyati yil davomida aholidan doimiy tushum va daromadlar turkumiga kirmasa-da turli yig'implar va to'lovlar yig'ish ishlariga ham e'tibor qaratgan. Okrugni boshqarishga oid "Muvaqqat qoidalar"ning 64-65 bandlarida pul yig'implaridan tashqari Zarafshon muzofoti yerlilari majburiyatiga barcha arava yo'llaridagi ko'priklar, to'shamalar, qiyaliklar va qoplamalarni tuzatishi, bundan tashqari yerlilar zimmasiga zarurat yuzaga kelganda Zarafshon muzofoti boshlig'i belgilangan narxda arava yetkazib berish ham kirishi ta'kidlab o'tilgan.

1880 yillarning boshlariga kelib muzofot aholisidan quyidagi soliq va yig'implar undirilgan:

- 1) davlat soliqlari: ular umumiy yig'implar va bahorgi mahsulotlardan undiriladigan xirojdan iborat bo'lgan;
- 2) davlat yig'implari: ularga bozor yig'imi, boj yig'imi, tamg'a yig'imi kirgan;
- 3) bahorgi va kuzgi ekinlardan undiriladigan jamoat yig'implari;
- 4) muzofotda xalq ta'limi tashkil etish uchun undiriladigan yig'implar[1].

Okrug tarkibidagi bo'limlardan tushgan pul mablag'lari okrug statistika bo'limining hisobotlarida va nashrlarida yillik hisobotlar shaklida alohida qayd etib borilgan. Xususan, 1880 yilda okrugda quyidagi soliq va yig'implar olingan: zemstvo to'lovlaridan 27881 rubl 25 tanga; yillik yer solig'i 153717 rubl 97 tanga; savdo guvohnomasi yig'imi 7246 rubl 50 tanga; davlatga tegishli buyumlarni ijaraga olishdan 3029 rubl 33 tanga[10].

1882 yilda o'lkani tekshirgan Girs Zarafshon okrugi aholisi 1882 yil uchun qo'shimcha soliqlarni hisobga olmaganda yer solig'i va boshqa to'lovlarni qo'shib hisoblaganda 932778 rubl to'laganlagini aytib o'tgan [11]. Ushbu to'lovlar quyidagilarga bo'lingan: a) Davlat G'aznachiligiga tushadigan to'lovlar (597000 rubl); b) zemstvo xarakteridagi to'lovlar (104306 rubl); v) ijtimoiy to'lovlar (133868 rubl); g) shahar (97604 rubl). Soliqlar va boshqa

yig'implarni okrugning Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlari va Tog'li tumanlarga taqsimlash okrug boshlig'i tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilgan.

Zarafshon muzofoti tugatilishi arafasida uning bo'limlari bo'yicha undiriladigan umumiy soliqlar va yig'implar 480 ming 291 rubl 18 tiyinni tashkil etgan. 5-jamg'armaning "1885 yilda muzofot aholisidan umumiy yer solig'i to'g'risida" nomli 3558-yig'ma jildida keltirilgan raqamli ma'lumotlar tahlil qilinganda soliq va yig'implarning katta qismi (59,4 foiz) Samarqand bo'limiga to'g'ri kelganligini ko'rish mumkin [1].

XIX asr ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasida soliq tizimi, xususan, Zarafshon okrugi misolida olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Rossiya imperiyasining bu hududda o'rnatgan soliq siyosati mahalliy aholi hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Soliq tizimi asosan natural va pul yig'implariga asoslangan bo'lib, u mahalliy iqtisodiy tuzilmalarga moslashish jarayonida murakkab muammolarni yuzaga keltirgan. XIX asr oxirida Zarafshon okrugi soliq tizimi bosqichma-bosqich Rossiya imperiyasining umumiy fiskal siyosatiga integratsiyalashgan bo'lsa-da, mahalliy aholi uchun bu jarayon og'ir iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlariga olib kelgan. Shu bois, soliq siyosati nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki mahalliy boshqaruv va ijtimoiy barqarorlik nuqtayi nazaridan ham chuqur tahlil qilinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axmedov T. Zarafshon muzofoti boshlig'i mahkamasi ish yuritish hujjatlari tarixiy manba sifatida. T.f.f.d. ilmiy darajasini olishi uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2021. – B. 108.
2. O'zMA I-5-fond, 1-ro'yxat, 11-yig'majild. 33-38-varaqlar.
3. Oblomurodov N., Tolipov F. O'zbekistonda soliqlar tarixi. – Toshkent, 2009. – B. 101.
4. O'zMA, 22-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3-yig'ma jild, 10-varaq.
5. Налоги и пошлины. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером графом К.К. Паленым. – СПб., 1910. – С. 50.
6. Хорошхина. А.П. Сборник статей касающихся Туркестанского края. – СПб., 1876. – С. 165.
7. O'zMA, 5-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3421-yig'ma jild, 17-varaq.
8. Радлов В.В. Средняя Зарафшанская долина. – ЗИРГО по отд. этнографии. – СПб., 1880. Том VI. – С. 92.
9. Арандаренко Г.А. Досуги в Туркестане 1874–1889. – СПб.: Тип. М.М. Стасюевича. 1889. – С. 368.
10. O'zMA I-22-fond, 1-ro'yxat, 269-yig'majild. 63-varaq.
11. Гирс Ф.К. Отчет ревизующего, по Высочайшему повелению, Туркестанский край, тайного советника Гирса. – СПб, 1884. – С. 87.